

SHARQONA OHANG VA FALSAFA MEDAT KAGAROV IJODIDA

Behzod Jo‘raboyev Shokirjonovich

UzDSMI o‘qituvchisi

E-mail: joraboevbexzod89@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Uyg‘ur millatiga mansub Medat Kagarov va uning O‘zbekiston tasviriy san‘ati rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan, uning tarixiga o‘zining nomini qanday muhrlaganligi haqida.

Kalit so‘zlar: Rassom, tasviriy san‘at, ikona, ksilografiya, litografiya, linogravyura.

АННОТАЦИЯ

Эта статья о Медате Кагарове, уйгуре, о том, как он внес свой вклад в развитие изобразительного искусства Узбекистана и как оставил свое имя в его истории.

Ключевые слова: Художник, изобразительное искусство, икона, ксилография, литография, линогравюра.

ABSTRACT

This article is about Medat Kagarov, a Uyghur, about how he contributed to the development of the fine arts of Uzbekistan and how he left his name in its history.

Key words: Artist, fine art, icon, woodcut, lithograph, linocut.

O‘zbekiston bag‘rikeng diyor. Unda 130dan ziyod millat va elat vakillari do‘st-inoq, hamjihatlikda, yagona oila bo‘lib yashab kelmoqda. Har qaysi sohaga nazar tashlasak unda turli millat vakillarining do‘stona, O‘zbekiston rivoji, uning taraqqiyoti yo‘lida fidokorona mehnat qilayotganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. O‘zbek xalqiga qardosh millatlar ichida uyg‘ur millati vakillari ham bugungi kunda mamlakatimizda o‘z faoliyatlarini olib bormoqdalar. Jumladan tasviriy san‘atda bir qator uyg‘ur millatiga mansub ijodkorlar ham borki, ularning ijodida ikki qardosh xalq an‘analari, o‘ziga xos milliylik belgilari namoyon bo‘ladi.

Uyg‘ur millatiga mansub, O‘zbekiston tasviriy san‘ati rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan, uning tarixiga o‘zining nomini mustahkam muhrlagan ijodkor Medat Kagarovdir. 1940-yil urushning sovuq nafasi esayotgan bir vaqtda bo‘lajak rassom Qozoqistonning Olma Ota shahrida nonvoy oilasida dunyoga keldi. Shirin

bolalik davrlari Ikkinchi jahon urushi yillariga to'g'ri kelga edi. Urush jang maydonlaridan olislardagi kichik-kichik uylarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan edi. Bu yillarda butun olam kulrang rangga burkangan edi. Faqatgina bo'lajak ijodkorning onasi har bahorda devorlarni oppoq rangga bo'yashi jajji bolakay qalbida yorug' va baxtli, ranglarga to'la hayotga bo'lgan ishonch va umidni paydo etardi. Devorlar bo'lg'usi ijodkor tasavvurlarini tasvirlash uchun oppoq polotnoga aylanar edi.

Yetti yillik ta'limdan so'ng Gogol nomidagi Olma Ota san'at bilim yurtiga o'qishga kiradi. Mazkur yillardagi faolligi, iqtidori tufayli bilim yurtini tamomlagandan so'ng iqtidorli talabalar qatori Leningradga sayohat uchun yuboriladi. Afsuski, bu orada oliy ta'lim dargohlari uchun qabul jarayonlari tamom bo'ladi. Qabul jarayoni yosh ijodkorni kutib turmagan edi. Taqdir uni Moskva oliy san'at bilim yurti sari boshladi. Medat Kagarov talabalik yillarini yodga olganda ustozlari – N.V.Melnikov va do'sti rassom-grafik – M.M. Verxalantsevlarni kelajagini belgilab bergan insonlar sifatida xotirlaydi. O'qishni muvaffaqiyatli tamomlab, umr yo'ldoshi bilan 1965-yilda Toshkentga – Toshkent Davlat teatr va rassomlik institutida dars berishga keladi. Va Medat Kagarovning ham hayoti O'zbekiston bilan bog'lanadi. Bu diyorda samarali ijod qildi. O'zbekiston tasviriy san'atida o'zining o'chmas izini qoldirdi.¹



M.Kagarov. Ohangning tug'ulishi. 2000

¹ Медат Кагаров каталог. Кириш сўз мақоласи - Ф.Хамраев, В.Карасёв Т.:2008

1970-yilda SSSR rassomlar uyushmasining a'zosiga aylandi. 1989-yilda esa O'zbekiston xalq rassomi unvoniga sazovor bo'ldi. 2003-yilda O'zbekiston Badiiy Akademiyasi, 2006-yilda esa Qozoqiston Badiiy Akademiyasi akademigi bo'ldi.

Rassom ijodining ilk asarlariyoq san'atshunoslar va san'at ixlosmandlari e'tiborini o'zining erkin ifodasi, innovatsionligi bilan o'ziga torta oldi. U ksilografiya, litografiya, linogravyura texnikalarini mukammal egallagan rassom-grafiklardan edi. Shuningdek, Medat Kagarov badiiy umumlashtirish va zargarlik darajasidagi grafik mahoratni talab etuvchi ekslibrislar mohir ustasi ham edi.

Medat Kagarovning ko'p asrlik O'rta Osiyo xalqlari ma'naviy madaniyatini o'z ichiga qamrab olgan o'ta noyob obrazli dunyosi bor edi. Uning obrazli dunyosining shakllanishida turk xalqlari madaniyati katta ahamiyat kasb etib, uning obraz va syujetlarida o'z aksini topdi.

Rassom M. Kagarov faylasufona fikrlaydi, hayotni shoirona his qiladi. U maishiy turmushdan yorqin obrazlar topadi, barcha noyob hodisalarni tez ilg'ab oladi.

Rassom M. Kagarovning ijodi ko'p qirrali va xilma-xildir. U o'z ijodining birinchi bosqichida grafikada ko'plab noyob asarlar yaratdi. Sharq va g'arbning mashhur adiblari kitoblariga bezaklar ishladi, ko'plab yuksak ma'joziy litografiyalarni yaratdi. Ularni xalqaro va shaxsiy ko'rgazmalarida namoyish qildi.

1991-yili M. Kagarovning Urumchi shahrida shaxsiy ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Aynan mana shu ko'rgazmadan keyin ijodkorning yo'nalishi butunlay boshqa tomonga burildi. Tashkilotchilar taniqli rassomni qadimgi g'orlar, shuningdek, me'morchilik inshootlari saqlanib qolgan qadimiy shahar Turfonga olib bordilar. U yerlardagi tasvirlar rassomni hayratga soldi. Rassom sayohatdan butunlay boshqacha dunyoqarash va hayotga munosabat bilan qaytib keldi. Shu paytdan rassom ijodining rangtasvir deb nomlangan davri boshlandi.

Rassom M. Kagarovning ijodi ko'p qirrali va xilma-xildir. U o'z ijodining birinchi bosqichida grafikada ko'plab noyob asarlar yaratdi. Sharq va g'arbning mashhur adiblari kitoblariga bezaklar ishladi, ko'plab yuksak ma'joziy litografiyalarni yaratdi. Ularni xalqaro va shaxsiy ko'rgazmalarida namoyish qildi.

Rassomning "Xiva taassurotlari", "Yil fasllari", "Tarjimai hol", "Forishdan reportaj", "Bodom gullaganda", "O'zbekistonim", "Bilol Nozim" singari ko'plab asarlari respublika badiiy madaniyatida sezilarli voqea bo'ldi. Ijodkor "Jangovor do'stlarim" avtolitografiya turkumi uchun O'zbekiston Yoshlari sovrini bilan mukofotlandi. 1977-yilda rassom yaratgan "Abdulla Oripov she'riyati" turkumida hali yosh, lekin o'z iqtidori bilan hammani hayratga solayotgan shoir qiyofasi gavdalantirildi. Turkum yorqin, ehtirosli, mazmun va yodda uzoq saqlanib qoladigan asarlar qatoridan joy oldi. Rassom shoirning biror asari bilan bog'liq syujetni yaratishga intilmadi. M. Kagarov yosh shoir haqidagi o'z taassurotlarini erkin, ilhom

bilan ifodaladi. Rassomning grafik asarlari nafis jozibasi va ma'joziyligi bilan e'tiborni tortadi. Uning iqtidori va ramziylikka intilishi asarlariga bo'lgan qiziqishni yanada oshiradi. Rassom ko'plab mayda detallardan bir butun kompozitsiya yaratadi.

Ijodkorning grafikalarida ham, rangtasvir asarlarida ham rassom o'zining menini, hayotga bo'lgan munosabatini ko'rsatib berishga intiladi. Uning ijodidan his-tuyg'ular, genetik xotiralar va kosmik qonunlar va yana ko'plab boshqa omillar o'rin egallaydi. Rassom oddiy hayotiy voqealarni faylasufona qarashlari ila mahorat bilan aks ettiradi.

Medat Kagarovning "Bodom gullaganda" turkum asarlari eng go'zal va betakror, fasllar kelinchagi bo'lmish bahor fasliga bag'ishlanadi. Rassom grafikaning barcha turlarida samarali ijod qilgan. Shuningdek, litografiyada ishlangan asarlari ham o'zining mahorati, noodatiy yondashuvi bilan ajralib turadi. "Bodom gullaganda" turkumi ham litografiyada ishlangan. "So'nggi qor". Noodatiy kompozitsion yechimga ega bo'lib, silliqlik kuzatiladi. Medat Kagarov litografik asarlariga xos tarzda uch o'lchamda berilmagan. Qahraton qishning so'nggi qorlari yog'ib, go'zal bahor fasliga umidla boqayotgan uch avlod vakili tasvirlangan. Jajji bolakay, farzandini bag'riga bosgan ona va yoshi ulug' otaxon. Ularning nigohlarida biroz xavotir mujassam. Keksa otaxonning yuzlariga tushgan ajinlar uning hayotda ko'p qiyinchiliklarni boshdan kechirganini, yuz ifodasi esa yana bir bahorga yetib kelganiga shukronalik keltirayotganidan darak beradi. Orqa plandagi eski uylar tomini yupqa qor qoplagan. Mitti qushlar va kuchuk ham osmonga termulib bahorni intiq kutayotganday. Butun olam, tabiat, insonlar va jonzotlar ham qishdan charchagan, endi yangilanish fasli bahorga intiq.

"Bodom gullaganda" turkumiga kiruvchi navbatdagi asar "Abadiy" deb nomlanadi. Bunda ham ijodkor kompozitsiyani tekis yuzaga, perspektivasiz quradi. Tabiat qo'ynida soz chalayotgan qiz sharqona obrazda gavdalanadi. Osmonda uchayotgan qushlar ijodkorning uslubiga xos tarzda inson va jonzotlarning o'zaro yaxlit hayotni aks ettiruvchi vosita sifatida gavdalanadi. Mazkur turkumga kiruvchi "Yangi kun", "Guldasta" asarlari ham bahorning ilk kunlarini aks ettiradi. "Yangi kun" kompozitsiyasida yoshi ulug' bog'bonning daraxt kurtaklariga qarab turgani, tabiatning uyqudan uyg'onib jo'shqin hayot tarzi boshlangani tasvirlangan. "Guldasta" kompozitsiyasida esa yosh yigitchaning bodom gullaridan ulkan guldasta yasayotgani, daraxtlar tabiatda tabiiy guldasta hosil etishi namoyon bo'ladi. Ijodkor bodom gullariga urg'u berib, ularni tog'lardanda baland, ulkan qilib tasvirlaydi. Rassom har bir kartinasida kompozitsiyani noodatiy qilib quradi. Shuningdek qushlar tasvirini ham har bir asarga kiritadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, Medat Kagarov ijodi Sharqiy Turkistonga qilgan sayohatidan keyin tubdan o'zgaradi. Ijodkorni Turfon uslubi butunlay xayolini band etdi. Rassom qadimgi "Ming uy" g'or – ibodatxonalari devorlaridagi rasmlarni o'rgana

boshladi. Ushbu devoriy suratlar musavvirning qalb tubida yashirinib yotgan hissiyotlarni uygʻotib yubordi. Endilikda qadimgi devoriy suratlar ohangi uning ikkinchi hayotiga aylandi. 1991-yildan boshlab u rangtasvirda tarixiy vatani Sharqiy Turkistonning boy madaniy merosi taʼsirida asarlar yarata boshladi. Asarlaridagi syujetlar Osiyoning qadimgi afsonalariga asoslangan, lekin shu bilan birgalikda bugungi kunimizni ham aks ettiradi.

“Turfon uslubi” katta seriya boʻlib, mazkur kartinalar ijodkorning ichki garmoniyasini namoyon etadi. Mazkur turkumga kiruvchi “Sharq ohanglari”, “Ohangning tugʻilishi”, “Kechki musiqa”, “Oqshom”, “Turfon musiqasi I”, “Uyqu”, “Moviy ohang” va yana bir qancha kartinalarda ijodkor sharq ohanglarini matoga tushuradi. Musavvir mazkur asarlarini “Ming uy” devorlariga ishlangan qadimgi tasvirlardan ilhomlanib yaratadi. Turkumga kiruvchi asarlar koloridida issiq, toʻq, ogʻir ranglardan foydalanilgan. Ranglar gammasining oʻynoqiligi kishi qalbida ajib bir navoni paydo qiladi. Har bir kartinada uygʻur xalqining mumtoz kuyi yangraydi. Yashirin garmoniya asosiga qurilgan kompozitsiyalar har bir tomoshabinda katta qiziqish uygʻotmay qolmaydi.

Medat Kagarovning umrining soʻnggi yillaridagi polotnolarida ikonanavislik maneralari paydo boʻladi. Bunday asarlarida ikona sanʼatiga xos belgi va simvollar ustunlik qiladi. Mazkur yoʻnalishda ishlangan kartinalari qatoriga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: “Kuz 97”, “Abadiy”, “Qush bilan birga”, “Dugona bilan uchrashuv”, “Tanlov”, “Anor sharbati”, “Eski uchrashuvlar” va yana boshqalar. Azaldan ikona sanʼati u yoki bu etnik guruhlarning oʻziga xos ahamiyatli jihatlarini simvollar yordamida koʻrsatib berishga xizmat qiladi. Bu jihatdan sharqona tafakkur ustunlik qiladi. Ilohga boʻlgan muhabbat qush, gul, shabboda nafasi ramzida tasvirlanadi.

M. Kagarovning ijodida klassik taʼlim, realistik sipolik, yevropacha avangard, sharqona ohang va oʻziga xos milliy tafakkur kabilarning zamonaviy uygʻunlashuvi kuzatiladi. Unda bundan tashqari, soʻz bilan ifodalab boʻlmaydigan, faqat rassom moʻyqalami talqin eta oladigan yana qator xislatlarni koʻrish mumkin.

Oʻzbekiston Davlat sanʼat muzeyi, Tretyakov galereyasi, “Ming uy” uygʻur galereyasi va koʻplab xususiy kolleksiyalarida M. Kagarovning asarlarini uchratishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Медат Кагаров. Каталог. - Т.:2008.
2. Чепелев В. Искусство Советского Узбекистана. – Л.: Изд. Ленинградского областного союза советских художников, 1935.
3. Ф.Хамраев. Дервиши. – М.:, 2010
4. Irfon To‘xtiev. “Ming uy”ning ming bir san’ati// Sovet O‘zbekistoni san’ati. 1979 у, 10-son